Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 316

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Nemis va o‘zbek oilalarida farzandlarni ovqatlanish odobi asosida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari

Kobil Kakharov*

Farg’ona davlat universiteti

✉ kakharovkobil190@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis oilalarida ovqatlanish bilan bog‘liq meyorlarni o‘rgatish haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar

farzand tarbiyasi, oila, o‘zini tutish, kiyinish odobi, so‘zlashish madaniyati, jamiyat, hamkasb, rasmiy va norasmiy davra.

DOI: 10.5281/zenodo.23277679

Kirish/ Introduction/ Введение

Ma’lumki, dunyoning barcha xalqlari farzand tarbiyasida nafaqat oilada o‘zini tutishi, kiyinish odobi, so‘zlash madaniyati va xatto ovqatlanish odobiga ham e’tibor qaratadilar. Biz quyida farzandlarini jamiyatda, hamkasblar davrasida, rasmiy va norasmiy davralarda stol atrofida ovqatlanayotganda o‘zlarini qanday tutishlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Stol atrofida ovqatlanish uchun o‘tirish odobi ham muhim sanaladi. Ota-onalar farzandlarini yoshligidanoq uydami, restorandami yoki biror-bir oshxonadami nimalarga e’tibor berishlarini o‘rgatadilar.

Materiallar va usullar/ Material and methods/ Материалы и методы

Tadqiqotda nemis va o‘zbek oilalaridagi ovqatlanish odobiga oid me’yorlar qiyosiy va tavsifiy tahlil qilindi. Material sifatida nemis tilidagi «Menschen» manbasi [1] hamda o‘zbek oilalarida ovqatlanish odobiga oid material [2] olindi.

Natijalar va muhokama/ Results and discussion/ Результаты и обсуждение

Nemis oilalarida ovqatlanish odobi

Rasmiy doiralarda mehmonlarni kutib olayotganda quyidagi ifodalarni aytish madaniyat belgisi xisoblanadi. Herzlich willkommen, Frau/Herr …! Kommen Sie rein. Schön, dass es geklappt hat. (Xush kelibsiz, xonim/janob ...! Ichkariga kiring, kelganingiz juda yaxshi bo‘ldi.) Darf ich Ihnen meine Frau / meinen Mann vorstellen? (Sizga rafiqamni / turmush o‘rtog‘imni tanishtirsam maylimi?) Guten Tag Frau/Herr … Sehr erfreut. (Salom xonim/janob ... Juda xursandman) Oh! Das ist aber ein schöner Blumenstrauß. Vielen Dank! Setzen Sie sich! / Fühlen Sie sich wie zu Hause! Darf ich Ihnen ein Glas Sekt anbieten? Vielen Dank! Das freut uns/mich. Möchten Sie noch etwas … / Darf ich Ihnen … anbieten? Darf ich Ihnen noch etwas Kaffee nachschenken? Schon? Bleiben Sie doch noch ein bisschen. / Sie haben recht. Kommen Sie gut nach Hause. Gern

geschehen. Ayniqsa rasmiy davradagi tanishtiruv marosimidagi ziyofatda ish beruvchilar bo‘lajak xodimining o‘zini qanday tutayotganligiga zimdan razm soladilar. Quyidagi xolatlarga albatta e’tibor berish lozim:

1. Agar siz judayam och bo‘lsangiz ham, hamma bilan salomlashib barchani yig‘ilguniga qadar kutishingiz lozim. Birinchi bo‘lib o‘tirishingiz va birinchi bo‘lib ovqatlanishni boshlashingiz odobdan emas. Buning uchun mezbon ovqatlanishga undagandan so‘nggina boshlashingiz mumkin. Bundan shu narsani tushunish mumkinki, nemis xalqida taomlardan tanavvul qilishni boshlashni mezbon belgilaydi;
2. Dasturxonga qo‘yilgan salfetkalar burunni tozalash uchun emas. Bundan tashqari salfetkalar bilan peshonangizdagi terlarni ham artish yaxshi emas. Bunday holatlar uchun siz o‘zingiz bilan salfetkalar olib yurishingiz lozim bo‘ladi. Salfetkalar ovqatlanish paytida quchog‘ingizga yoyilgan holatda turishi lozim va albatta hech qachon ko‘ylak yoqasiga qistirilmaydi. Agar kimda-kim hojatga borishi lozim bo‘lsa salfetkalarni o‘tirgan stuliga qo‘yishi lozim. Mobodo tanavvul qilishni tugatgan bo‘lsangiz, salfetkalarni o‘zingiz uchun ajratilgan tarelkangiz yoniga qo‘yishingiz lozim bo‘ladi. Vilka, qoshiq va pichoqlar faqat ovqatlanish uchun qo‘yiladi. Siz undan so‘zlashayotgan paytda foydalanmasligingiz lozim. Agar dasturxonga bir necha taomlar tortilishi lozim bo‘lsa, siz qoshiq, vilka, pichoqlarni tartibiga e’tibor berishingiz lozim. Xar doim ularni eng chekkasidan boshlang;
3. Taomingizga tuz yoki qalampir solishdan oldin uni tatib ko‘ring va taom mazzali bo‘lganligini, u sizga yoqqanligini albatta mehmonga bildirib qo‘ying. Agar taomga tuz yoki qalampir yetishmayotgan bo‘lsa biroz ovqatlangandan keyingina iltimos qiling. Masalan, tuz yoki qalampir solsam maylimi (Darf ich Saltz oder Pfeffer nehmen?);
4. Pichoq bilan taomni katta kesib og‘izga solish yoki og‘izni to‘ldirib ovqatlanish odobdan emas. Taomingizni tezdagina tanavvul qilib qo‘ymang, chunki ovqat paytida suxbatlashib o‘tirasiz va hech qachon og‘iz to‘la ovqat bilan gapirmang;
5. Stoldan erta turib ketish tabu xisoblanadi. Mehmon qachon ketishini yoki ziyofat qachon tugashini mezbon belgilaydi. Agar siz juda charchasangiz ham yoki shoshilsangiz ham va uyingizda televizor ko‘rib oqshomni o‘tkizdirishni xohlasangiz ham hech qachon hammadan erta turib ketmang. Agar sizda erta ketish uchun muhim asos bo‘lsa, albatta xar qanday holatda ham kechirim so‘rab, sababini aytib, samimiy xayrlashishingiz lozim. [1, 40] Nemis xalqida shunday maqol bor: “Andere Länder, andere Sitten!” ya’ni, o‘zga mamlakatlar o‘zgacha urf-odatlar. Ko‘rinadiki o‘zbek va nemis xalqlarining ovqatlanish odobi ba’zibir holatlarda bir-biridan farq qiladi. Masalan o‘zbeklarda mehmonning qachon ketishini mezbon belgilamaydi. U mehmon vaziyatga qarab taomlardan tanavvul qilgandan so‘ng xayrlashib ketishi mumkin. O‘zbeklarda taomlanayotganda burnini tozalash tabu xisoblanadi. Nemislarda ham burun kavlash tabu xisoblansada, lekin burun qoqish mumkin. Yapon xalqida taomlarni ikki tayoqcha bilan ovqatlanishlarini bilamiz. Hech qachon ulardan qoshiq, vilka, pichoq so‘ramaslik lozim. Bu holat hurmatsizlik hisoblanadi. Imkon qadar tayoqchalar bilan yeyishga harakat qilishingiz lozim. Ularning sevimli ovqati bo‘lgan, guruchdan tayyorlangan taom ustiga tayoqchalarni vertikal xolatda qo‘ymaslik lozim. Bunday holat tabu xisoblanib o‘limni eslatadi. [1, 41]

O‘zbek oilalarida ovqatlanish odobi

O‘zbek oilalarida ham qadimdan farzandlarini sharqona go‘zal odoblarga o‘rgatib kelganligini kuzatishimiz mumkin:

1. Ovqatlanishdan avval ikki qo‘lni bo‘g‘imigacha uch marta yuvish;
2. Ovqat kamtarin holda o‘tirib yeyiladi, turib, yotib, biror narsaga suyanib yoki yurib yeyilmaydi;
3. Ovqat yeyishdan avval “Bismillahir rohmanir rohim” deyiladi. Bu boshqalarning ham esiga tushishi uchun sal balandroq ovoz bilan aytiladi. Agar ovqat avvalida Allohning ismini zikr etish unutilsa, “Bismillahi avvalahu va axirah” deyiladi;
4. Qorin ochganda ovqat yemoq sunnatdir. Kishi och qolganda ovqatga qo‘l uzatsa, juda ham to‘yib ketmasdan oldin yeyishni to‘xtatsa, hech qachon betob bo‘lmaydi;

5. Ovqatga ham hurmat ko‘rsatiladi. Yaxshi pishmagan ovqat yomonlanmaydi. Og‘izga ovqat olinganda birov bilan gaplashilmaydi, ovqat shoshilmasdan, yaxshi chaynab yeyiladi;
6. Ovqatlanish vaqtida behuda gaplar aytilmaydi;
7. Dasturxon yozib ovqatlanish, ilmli, taqvoli, yoshi ulug‘roq va ustozlardan oldin ovqatga qo‘l uzatilmaydi. Dasturxon atrofida o‘tirganlar ovqatga taklif etilib, so‘ngra yeyiladi;
8. Ovqat umumiy idishdan yeyiladigan bo‘lsa, hamma o‘z oldidan olib yeydi;
9. Ovqat issiq holda yeyilmaydi. Issiq ovqatga puflanmaydi, soviguncha sabr qilinadi. Agar luqma tushib ketsa, tozalanib, keyin yeyiladi;
10. Ovqatlangandan so‘ng dasturxondagi ushoqlar terib yeyiladi. Duo qilinmasdan turib ketilmaydi;
11. Ovqatlangandan so‘ng idishlar yuvib tozalanadi;
12. Ovqatlangandan keyin ikki qo‘lni bo‘g‘imigacha uch marta yuvish, og‘izni chayish kabilar. [2]

Xulosa/ Conclusion/ Заключение

Bir-biridan uzoqda yashovchi o‘zbek va nemis oilalaridagi ovqatlanish odobi, ularning madaniyatlari, dunyoqarashlari, ruhiyatlari, kundalik turmush tarzlari, milliy o‘ziga xos jihatlari va xalqlar o‘rtasida ko‘p asrli boy tarixi davomida to‘plangan fazilatlarni tadqiq qilish ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Julia Braun-Podeschwa u.a. Menschen. München. 2015 Hueber Verlag. S-40

[2] Adina SAYDAHMEDOVA, “Xadichai Kubro” madrasasi o‘qituvchisi “Мўминалар” журналининг 2020 йил, 5-сонидан